

IJODGA BAXSHIDA UMR YOXUD MILLAT FIDOIYSI BO'LGAN ZAHMATKASH
YOZUVCHI KECHINMALARI

Odiljonova Durdona Nodir qizi
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti talabasi*

Annostatsiya. Maqolada Ozod Sharafiddinovning zalvorli faoliyati, kelajak avlod uchun qoldirgan ulkan merosi va teran fikrlarining bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, o'tmishiga muhabbat, xalqiga sadoqat bilan boqib, Vatanni jon, tomirdagi qon deb bilgan o'zbek o'g'lonining kechinmalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Sadoqat, vafo, kechinma, yurak, qon, tomir, millat, badiiy chizgi, harorat, taft, poeziya, zamona, portret, uyg'unlashuv, boqiylik, yondashuv, joziba, his, ajdod, avlod.

"Fikr g'oyibdan hosil bo'lmaydi. Fikr bilimning hosilasi"dir. Har kim ham buni anglamaydi. Biroq ushbu jumlanı mag'zini chaqqanlar, shunchaki yashay olmaydi. Mana shunday tinib-tinchimas, ilm yo'lida har chog' intilgan va tarix zarvaraqlarida ismi muhrlanib, bugun ham o'z asarlari, g'oyalari va tarjimalari bilan barhayot Ozod Sharafiddinovdir. Taniqli o'zbek adabiyotshunosi, adabiy tanqidchi Ozod Sharafiddinov butun umri davomida yuqoridagi fikriga amal qildi, vaqt topdi deguncha o'z ustida ishladi, tinmay ijod qildi. Eng muhimi umri davomida Vatan uchun yondi, xalqiga sadoqat bilan xizmat qildi, yangicha yondashuvlari bilan adabiyot gulshanida o'z nomini qoldirdi, shunchaki yozmadni, qalbidagi bilan vujudlarni titratdi. O'zi ta'kidlaganidek "hech qachon jo'ngina formulaga tushadigan yuzaki odam bo'lmadi", haqiqiy ijodkor bo'la oldi, tinimsiz mehnatlari samarası o'laroq o'zbek tanqidchiligining yirik namoyandasiga aylandi. She'riyatga ham o'ziga xos mezonlar bilan yondashgan. Bu mezonlarning birinchisi esa olim asarlarining asl mohiyatini aks ettiradigani haqiqatparastlikdir. "Har qanday she'r poeziya bo'lavermaydi", — deb yozadi olim. — "Agar poeziyaning mohiyati vazn va turoqlardan, qofiya va alliteratsiyalardangina iborat bo'Iganda, ma'lum bir ma'noni ma'lum bir ohangda ifodalashdan nariga o'tmaganda, dunyoda shoirlikdan osonroq ish bo'lmash edi. Agar shunday bo'lsa, o'rtacha savodi bor, esi butun har qanday odamni bir hafta o'qitib, binoyidek shoir qilish mumkin bo'lardi. Unga hatto chiroyli o'xshatishlar, aniq sifatlashlar, original metaforalar topish yo'lini ham o'rgatib qo'ysa bo'lardi. Holbuki, bunday emas. Poeziya gazetaning informatsiya janridan farq qiladi. Shoirlik inson faoliyatining eng qiyin, murakkab tomonlaridan biridir. Shoir degan odam o'tkir fikr yuritish qobiliyatiga, shoirlik talantiga ega bo'lishi lozim. Talant bo'lmasa, har qancha uringan bilan chinakam poeziya namunalarini yaratib bo'lmaydi".

"Ming to'qqiz yuz ellik beshinchi yilning aprel oyi. Maksim Gorkiy nomidagi jahon adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti. Moskvaning yetakchi adabiyotshunos olimlari institut zaliga yig'ilgan. Minbarda yoshi endigina 26 ga to'lgan, o'rta bo'yli, xipcha gavdali,

qoraparang, qirg'iy burun yigit. U "Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek dostonchiligi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasining mazmuni xususida ma'ruza qilayapti... U yigit endilikda taniqli adabiyotshunos, munaqqid, professor Ozod Sharafiddinov edi"... Munaqqid ijod qilgan davrda o'zbek adabiyotida jahon adabiyoti talablariga javob bera oladigan ko'plab betakror asarlar yaratildi. Shunda Ozod Sharafiddinovning "Iste'dod — xalq mulki" degan iborasi mag'rur jarangladi. Ijod ahlining yutuqlaridan quvongan munaqqid ularning har bir yaxshi asarini kitobxon ahliga yaqinlashtirdi, olmos kabi jilokor va serqirra, kamchiliklardan xoli bo'lishini ta'min etdi. Shuningdek, ijodkor nazarda tutmagan jihatlarini kashf qildi, xalq farzandlarini adabiyotni tushu-nishga o'rgatdi. Abdulla Qahhor suhbatlarining birida Ozod Sharafiddinovni tilga olib: "Shunday yozmoq kerakki, nosfurush sening kito-bing sahifasiga nos o'rav sotgan bo'lsa, uyida uni ochib, matniga ko'zi tushgan odam: "Iye, bu Ozodning gaplari-ku", deya sahifani ehtiyyot qilib, olib qo'yin". Bu haq gapni qadrlay bilgan O.Sharafiddinov esa ustozining fikriga javoban "... bunday mukammal yozmoq uchun, bu darajada barkamol san'at namunasini yaratmoq uchun ijodkor Abdulla Qahhordek mehnatkash bo'lmos'i lozim. Bu esa hammaga ham nasib qilavermaydi. Faqat o'z Vatanini jon dilidan yaxshi ko'rgan, o'z xalqini har tomonlama barkamol ko'rishni istagan, ko'ksida istiqlol yolqini barq urib turgan san'atkorgina bu baxtga musharraf bo'ladi", deb qayd etgan edi. Ozod Sharafiddinovning alohida chop etilgan asarlarining o'zi 28 ta, vaqtli matbuotdagi maqola va suhbatlari 385 ta. "Zamon. Qalb. Poeziya", "Yalov-bardorlar", "Iste'dod jilolari", "Birinchi mo'jiza", "Adabiyot — hayot darsligi", "Cho'Iponni anglash", "Ijodni anglash baxti", "Dovondagi o'ylar" kabi o'nlab adabiy-tanqidiy risolalari chop etildi. To'plamlardagi maqolalar, kirish so'zlari, so'zboshi va so'ngso'zlar 50 dan ziyod, tarjima asarlari esa 150 taga yaqin. Xususan, adabiyotimizga beqiyos xazina bo'lib qo'shilgan "Cho'Ipon" asarining eng qimmatli tomoni adibning butun ijod yo'li izchil tarzda qamrab olinganligida, ya'ni Cho'Iponning nasri, lirikasi, drama-turgiyasi hamda adabiy-tanqidiy qarashlari to'g'risida ilk bor yaxlit haqqoni ma'lumot berilganlidadir. Qahramonning ijodiy yo'lini yoritar ekan, munaqqid Cho'Iponning zaifgina nasriy mashqlaridan buyuk shoir darajasiga ko'tarilishidagi tadrijiy rivojini o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi.

Shuningdek, Sharafiddinov o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti bilan uyg'un tarzda o'rganish an'anasi boshlab bergan. Shahrining "Istiqlol fidoyilari" (1993), "Sardaftar sarlavhalari" (1999), "Ma'naviy kamolot yo'llarida" (2001) kitoblarida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'Ipon, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Otajon Hoshimov ijodi yangicha nuqtai nazaridan tahlil etilgan. "Cho'Iponni anglash" (1993) asarida esa yangi o'zbek tanqidchiligi XX asrda bosib o'tgan murakkab yo'lni tahlil qilgan, ko'plab munaqqidlar ijodi, estetik prinsipini Cho'Ipon ijodiga munosabat nuqtai nazaridan yoritgan. Sharafiddinov "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" o'quv dasturi (1997), "XX asr o'zbek adabiyoti" (1999) darsligi mualliflaridan. Shuningdek, birinchi marta 1997-yilda "Jahon adabiyoti" jurnali tash-kil etildi. Dunyo badiiyatining eng yaxshi namunalarini o'zbek kitobxonlariga yetka-zish mo'ljalangan va milliy adabiyoti-miz

tajribalarini jahon miqyosida omma-lashtirishni ko'zda tutgan mazkur nashrning birinchi bosh muharriri sifatida adabiy jamoatchilik orasida katta mavqega ega bo'lgan olim Ozod Sharafiddinov tanlandi. Ezgu niyatlar bilan tashkil qilingan jur-nal ilk sonlaridanoq o'z mushtariylarini topdi. Hozirgacha chop etilgan sonlarida dunyo adabiyotining turli janrlariga xos ko'plab namunalar ona tilimizda kitob-xonlarga taqdim etildi. Bu yo'nalishda ham O.Sharafiddinovning xizmatlari katta. Yozuvchi ijodining cho'qqisi "Ijodni anglash baxti" (2004) kitobidir. Unda o'zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonida tutgan o'rni va ilmiy-ma'naviy o'zanlari tadqiq etib berilgan.

Ozod Sharafiddinovning asarlari ichida xotira-esselar uning ijodining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Shunday ekan ijodkor o'y-fikrlarini umumlashtirgan holda hayot saboqlari haqida teran mushohada yuritishi, turmush chigalliklarini bartaraf qilishda teran nigohlarda hayot haqiqatini anglab yetish darkorligini ko'p bora tilga oladi. Bu ayni Ozod Sharafiddinovga xos o`zgachalik, hech kimga o`xshamas iste'dod egasi ekanligida deya atash mumkin bo'ladi. Iste'dodli yozuvchi Nosir Fozilovning "Topdim-u yoqotmadim" xotiralar kitobida ham buyuk so'z ustalari, ijodkor va yozuvchilar ibratli hayot yo'llari haqida eslab o'tiladi. "Azizim" (O`lmas Umarbekov haqida), "Ta'zim" (ustozi Hamid G`ulom haqida), "Mulla Shukur" (Shukur Xolmirzayev haqida), "Ukadek aziz, do'stdek qadrondon edi" (Tog`ay Murod haqida), "Yaxshilarga yondashib" (Sobit Muqonov haqida), "She'riy maktub" (G`ulom haqida), "O`zlaridan so`rasak" (M.Shayxzoda haqida), "Kenglik" (Oybek haqida), "Tanishuv" (A.Qahhor haqida), "Uchqo`rg`on" (S.Ahmad haqida) nomli esselarida atoqli o'zbek va qardosh xalqlar adiblari va ularning ijodi haqidagi adabiy portretlar jamlangan. Shu o'rinda adabiyotshunos A.Rasulovning adabiy portret janrining nazariy belgilari haqidagi quyidagi fikrlarini eslash joiz: "Adabiy portret janri tanqidchidan, yozuvchi hayoti va ijodiga oid materiallarni mukammal o'zlashtirishdan tashqari, teran zamonaviy nazariy bilimi, davr va adabiyot taraqqiyotida bosh tamoyillarni nozik anglashni, xarakteri yaratilayotgan san'atkorga nisbatan aniq munosabatda bo'lishni taqozo etadi" [13:68]. Ijodkorning ushbu nazariy qarashlari N.Fozilovning "Topdim-u yo`qotmadim" xotira kitobida to`laqonli o`z aksini topgan. Boisi yozuvchi qo'l urishi lozim mavzu yuzasidan atroficha emas, balki to`la-to`kis ma'lumotga ega holda har bir buyuk ijodkor siy whole into the next sentence. This is a complex sentence structure where the main clause continues across two lines. I will reformat it to ensure readability while maintaining the original intent.

Kitobning "Ijod zahmati" qismida esa ijodkor o`zi, yaqinlari, umri davomida unga ijod sirlarini yuqtirishda ko'makdosh qadrondlari, o'zining tarjimonlik faoliyati va bolalar adabiyotidagi o`ziga xos asarlari yaratilishi tarixi haqida to'xtalib o'tadi. "Men qishloq bolasiman. Birinchi hikoyamdan to hozirgi kungacha yozgan asarlarimning bosh qahramoni o'zim, bolaligim, qishlog'im. "Irmoq" muqovasiga chizilgan sariqqina bola – men, uloqchalar – mening suruvsalarim, qishloq, tepaliklar, daraxtlar – tug'ilgan qishlog'im. Men tabiatni shu yerda tanidim, sevib qoldim, hali hanuz sog'inchi bilan yashayman..." [7:269]. Aynan shu satrlar ijodkorning boshqalardan ayro xususiyati, ya'ni samimiylilik va soddadillik umri kabi ijodining ham doimiy hamrohi ekanligidan dalolatdir. O'zbek adabiyotida esse janri badiiy ijod va ijodkor siy whole into the next sentence. This is a complex sentence structure where the main clause continues across two lines. I will reformat it to ensure readability while maintaining the original intent.

hisoblanadi. Esselarning ijodkor yoki buyuk shaxslar hayot va ijod yo'li haqidagi adabiy o'ylar, tasvirlanayotgan voqealari hodisa yoki shaxs siyoshi badiiy portretini gavdalantirish maqsadida yaratilgan xotira-esselalar ijodkorning zahmatli mehnati asosida yuzaga keluvchi xazinadir. Xotira-esselarni o'qish orqali biz tasvirlanayotgan shaxsning insoniy xislatlarini yanada chuqurroq anglab yetamiz. Voqealari haqida esa batafsil ma'lumot olamiz. Buyuk daholarning ijodiy kamolotini yuzaga chiqargan shaxsiy xislatlari, boshqalardan farqlantiruvchi jihatlarini yaqqol ko`ra olishimiz mumkin.

Sharafiddinovning munaqqidlik faoliyatida esa 2 davr ko'zga tashlanadi. Birinchi davr sho'ro totalitar tuzumida kechgan bo'lib, unda adabiyotni totalitar mafkura g'oyalardan himoya qilish, adabiy qonuniyatlar asosida tadqiqotlar olib borish muammolari tadqiq etilgan ("Zaharxanda qahqaha", 1962; "Hayotiylik jozibasi, sxematizm inersiyasi", 1979; "Yurtin madhi bo'ldi so'nggi satri ham", 1979; "She'r ko'p, ammo shoirchi?", 1983). Ikkinci davr munaqqid faoliyatida asosiy davr bo'lib, u istiqlol yillaridagi ijodini qamrab oladi. Bu davrda Sharafiddinov milliy adabiyotni shakllantirish muammolari, o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligin qayta qurish, jahon adabiyoti an'analarini o'zlashtirish hamda tarjima san'atini yuksaltirish masalalarini tadqiq etgan ("Bir tilda gaplashaylik", 1987; "Mag'zi puch so'zlardan bir tosh nari qoch", 2000; "Qaydasan, Moriko", 2002).

Ha, uning ijod yo'li mana shunday ummon kabi cheksiz. Hat jabhada u o'zining teran fikrlarini xalqiga yetkazish yo'lida yonib yashagan. Bir zum to'xtashni, tinim bilishni istamagan mehnatkash, ilmga tashna, xalqi, kelajak avlod uchun kuyunchak ijodkor, Vataniga haqiqiy sodiq, vafodor o'g'lon bo'lgan. Zero buni ustozning uzoq yillik sermazmun faoliyati-yu, har bir yo'nalihidagi ijod namunalarining tub ma'nosidan ham anglash mumkin. Yetuk adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov umrining oxirlarida og'ir xastalikni boshdan kechirdi. Taqdirning bu sinoviga ham mardona dosh berib, barcha qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Qancha og'ir bo'lmash, dolzarb mavzularda maqolalar yozib, adabiy jarayonda peshqadam ijodkorlardan bo'ldi. Ayniqsa, ustozning tarjimonlik borasidagi ishlari alohi-da tahsinga loyiq. Bir zum ham qalamini qo'ldan qo'ymay, turli janrlardagi ko'plab asarlarni o'zbekchalaشتirdi. Og'ir bemorlikdagi bunday sermahsul, yuksak saviyadagi faoliyatni zamondoshlari yuksak matonat sifatida tan olishdi. Olimning hozirjavoblik, shavq va ilhom bilan yozilgan asarlari adabiyotshunoslikning o'ziga xos namunalari bo'lib qoladi. Ularni o'rganish, tahlil qilish, taqqoslash, yozuvchi fikrlarining mag'zini chaqish esa bugungi avlod uchun ham farz ham faxrdir. Ular qoldirgan mislsiz dengizda suzish, katta tajriba maktabidan ilm olish-ijodkor yashagan davr nafasidan bahramand bo'lish bilan birga Vatanni Sharafiddinovday sevishga, ilm-u fan yo'lida tin olmaslikka, millatga sadoqat bilan xizmat qilishga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Ahmedova “O`zbek adabiy tanqidchiligi tarixi” T.: 2012
2. O.Sharafiddinov. “Ijodni anglash baxti”. T.: 2004
3. O.Sharafiddinov. “Iste’dod jilolari” T.: 1976
4. O.Sharafiddinov. “Talant – xalq mulki”. T.: 1979
5. S.Umirov. “Boburnoma” – badiiy maqolanavislikning go`zal namunasi. Juhon adabiyoti jurnali. 2003. No 2. 76-79.
6. O.Sharafiddinov. “Dovondagi o`ylar”. T.: 2004
7. N.Fozilov. “Topdim-u yo`qotmadim”. T.: 2010.
8. U.Normatov. “Ijod va shijoat”. T.: 2006.
9. M.Qo`shtonov. “Mahorat sirlari”. T.: 1968
10. M.Qo`shtonov. “Hayot va nafosat”. T.: 1970.
11. A.Rasulov. Iste’dod va e’tiqod. T.2000.
- 12.M.Qo`chkorova. “Badiiy so`z va ruhiyat manzaralari”.
- 13.Adabiyot darsliklari 2019-yil
- 14.Ozod Sharafiddinov asarlari va maqolalari.